

XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O‘RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-dekabr holatiga viloyat doimiy aholisining soni 4 144,7 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 83,2 ming kishiga yoki 2,0 %ga ko‘paydi. Shundan, 2 354,9 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,8 %) va 1 789,8 ming kishi - qishloq joylarida (43,2 %) istiqomat qiladi.

Viloyat hududi va aholi zichligi


(2025- yil 1- yanvar holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
Viloyat bo‘yicha	15.01.1938	6,759	4 144,7	613,2
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	1877- yil	0,108	328,4	3 036,2
Qo‘qon	X asr	0,064	314,5	4 888,1
Quvasoy	14.06.1954- yil	0,264	103,2	390,9
Marg‘ilon	X asr	0,052	257,9	4 957,7
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926- yil	0,631	233,1	369,5
Qo‘shtepa	16.04.1952- yil	0,366	213,3	582,2
Bag‘dod	31.12.1964- yil	0,333	238,2	714,4
Buvayda	26.12.1973- yil	0,279	252,7	905,7
Beshariq	29.09.1926- yil	0,774	247,2	319,4
Quva	10.02.1939- yil	0,438	280,7	640,6
Uchko‘prik	29.09.1926- yil	0,271	247,0	911,0
Rishton	09.01.1967- yil	0,307	221,2	719,8
So‘x	27.02.1990- yil	0,221	86,1	390,1
Toshloq	12.04.1973- yil	0,243	221,9	914,5
O‘zbekiston	17.04.1963- yil	0,674	240,4	356,7
Farg‘ona	22.02.1964- yil	0,594	226,0	380,5
Dang‘ara	07.12.1970- yil	0,427	181,0	424,2
Furqat	09.04.1992- yil	0,305	129,8	425,2
Yozyovon	27.12.1980- yil	0,407	122,1	300,0

Farg‘ona viloyatining ma’muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,759 ming kvadrat kilomertni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh hamda Batken viloyatlari va g‘arbdan Tojikiston Respublikasining Xo‘jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi zichligi

2025- yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



Farg‘ona viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha 613,2 kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,3 kishiga ortgan (2024- yil 1- yanvarda 1 kv.km.ga 600,9 kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Marg‘ilon shahrida 4 957,7 kishi, Qo‘qon shahrida 4 888,1 kishi, Farg‘ona shahrida 3 036,2 kishi, Toshloq tumanida 914,5 kishi, Uchko‘prik tumanida 911,0 kishi, Buvayda tumanida 905,7 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Yo‘zyovon tumani 300,0 kishi, Beshariq tumanida 319,4 kishi, O‘zbekiston tumanida 356,7 kishi, Oltiariq tumanida 369,5 kishi, Farg‘ona tumanida 380,5 kishini tashkil etgan.

Viloyat ma‘muriy hududiy bo‘linishiga ko‘ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 194 ta shahar tipidagi posyolkalar, 999 ta qishloq aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan tashkil topib, ularda **4 144,7** ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma‘muriy markazi Farg‘ona shahridir.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2025- yilning 1- yanvar holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, % da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Farg'ona viloyati	4 144,7	2 354,9	1 789,8	102,0	56,8	43,2
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	328,4	328,4	0,0	102,1	100,0	0,0
Qo'qon	314,5	314,5	0,0	102,1	100,0	0,0
Quvasoy	103,2	58,0	45,2	102,0	56,2	43,8
Marg'ilon	257,9	257,9	0,0	101,7	100,0	0,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	233,1	174,5	58,6	102,1	74,9	25,1
Qo'shtepa	213,3	82,0	131,3	102,5	38,4	61,6
Bag'dod	238,2	121,5	116,7	102,2	51,0	49,0
Buvayda	252,7	114,1	138,6	102,2	45,2	54,8
Beshariq	247,2	86,4	160,8	101,8	35,0	65,0
Quva	280,7	129,8	150,9	101,8	46,2	53,8
Uchko'prik	247,0	47,5	199,5	102,3	19,2	80,8
Rishton	221,2	140,7	80,5	102,0	63,6	36,4
So'x	86,1	54,1	32,0	102,6	62,9	37,1
Toshloq	221,9	52,5	169,4	102,0	23,6	76,4
O'zbekiston	240,4	109,4	131,0	101,7	45,5	54,5
Farg'ona	226,0	139,8	86,2	102,0	61,9	38,1
Dang'ara	181,0	40,0	141,0	102,2	22,1	77,9
Furqat	129,8	31,1	98,7	102,1	24,0	76,0
Yozyovon	122,1	72,7	49,4	101,9	59,5	40,5

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 328,4 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 %ga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 280,7 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga o‘sgan).

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar

Qishloq




56,8%

43,2%

Aholining yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha taqsimlanishi


2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga Farg‘ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 249,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, 77,8 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 233,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni 85,2 ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2025- yil 1-yanvar holatiga



2 092,0 ming kishi

2 052,7 ming kishi


Yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha

aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko‘rsatkichlar	ming kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Tug‘ilganlar	106,5	103,1	26,5	25,1
O‘lganlar	18,7	17,9	4,6	4,4
Nikohlar, <i>mingta</i>	31,1	29,2	7,7	7,1
Ajralishlar, <i>mingta</i>	5,8	4,8	1,4	1,2

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2024- yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



Tug'ilish darajasi. 2024- yilning yanvar–dekabr oylari tug'ilganlar soni 103,1 ming kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (106,5 ming kishi) nisbatan 3,4 ming kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 25,1 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Uchko'prik tumanida 28,8 dan 28,8 promille, kamayishi esa Quvasoy shahrida 25,9 dan 22,9 promille va Qo'shtepa tumanida 30,4 dan 28,0 promillega kuzatildi.

O'lim darajasi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida o'lganlar soni **17 880** kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (**18 658** kishi) nisbatan 778 kishiga kamaygan. Mos ravishda o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil qildi (2023- yil yanvar-dekabr oylarida **4,6** promille).

O'lganlar sonining ko'payishi viloyatimizning ba'zi shahar va tumanida yuz bergan bo'lib, eng ko'p o'lim Farg'ona shaharda 1 750 kishidan 5,4 promille, Qo'qon shaharda 1 490 kishidan 4,8 promille, Quva tumanida 1 165 kishidan 4,2 promille, Marg'ilon shaharda 1 093 kishidan 4,3 promille, Beshariq tumanida 1 063 kishidan 4,3 promilleda kuzatildi.

O'lganlar umumiy sonining **61,0** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,2** %i o'sma kasalliklaridan, **4,3** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **6,3** %i baxtsiz hodisadan, **5,2** %i nafas olish organlari kasalliklaridan, **0,8** %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan va **13,2** %i boshqa sabablarga ko'ra vafot etgan.

Nikohlar va ajralishlar. 2024-yilning yanvar-dekabr oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **29 179** ta nikohlar va **4 800** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan **7,1** ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida **7,7** ta) va **1,2** ta ajralishlar (2023- yilning tegishli davrida **1,4** ta) to‘g‘ri keladi.

Yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
Viloyat	31 121	29 179	5 773	4 800
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	2 250	2 044	762	594
Qo‘qon	2 133	1 992	619	548
Quvasoy	708	665	169	148
Marg‘ilon	1 943	1 727	364	300
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	1 900	1 847	290	255
Qo‘shtepa	1 669	1 581	238	175
Bag‘dod	1 841	1 826	344	265
Buvayda	1 936	1 991	285	203
Beshariq	1 899	1 705	258	245
Quva	1 981	1 929	325	258
Uchko‘prik	1 935	1 732	305	245
Rishton	1 890	1 625	328	230
So‘x	752	767	104	88
Toshloq	1 579	1 508	215	217
O‘zbekiston	1 739	1 641	286	276
Farg‘ona	1 810	1 559	333	278
Dang‘ara	1 416	1 335	231	221
Furqat	854	896	159	161
Yozyovon	886	809	158	93

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga ko'chib kelganlar soni **13 362 kishini**, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa **15 384** kishini tashkil qildi. Migratsiya saldosini minus 2 022 kishiga (2023-yilning shu davrida minus 2 611 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Marg'ilon shahri (minus 924) va O'zbekiston tumani (minus 665) kuzatildi.

Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosini	
	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil
Viloyat	8 944	13 362	11 555	15 384	-2 611	-2 022
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	4 175	4 233	2 437	2 765	1 738	1 468
Qo'qon	249	1 928	1 198	1 739	-949	189
Quvasoy	484	505	329	426	155	79
Marg'ilon	20	783	1 172	1 707	-1 152	-924
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	173	224	427	507	-254	-283
Qo'shtepa	568	889	323	666	245	223
Bag'dod	22	115	338	430	-316	-315
Buvayda	162	249	425	437	-263	-188
Beshariq	239	202	635	696	-396	-494
Quva	217	415	650	724	-433	-309
Uchko'prik	170	217	328	603	-158	-386
Rishton	196	252	415	579	-219	-327
So'x	118	643	71	165	47	478
Toshloq	363	538	425	741	-62	-203
O'zbekiston	289	297	550	962	-261	-665
Farg'ona	575	892	1033	961	-458	-69
Dang'ara	410	417	277	619	133	-202
Furqat	373	373	313	391	60	-18
Yozyovon	141	190	209	266	-68	-76

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 965,6** ming so'mni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga nisbatan **15,1%**ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shahrida **5 379,6** ming so'mni, Qo'qon shahrida **4 499,4** ming so'mga to'g'ri keldi.


Yanvar-dekabr oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi

(ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2024- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib **10 026,8** ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich qurilishda **3 622,8** ming so‘m, sanoatda **4 548,6** ming so‘m va ta‘lim sohasida **3 242,8** ming so‘mdan iborat bo‘ldi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-dekabr oylari qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati %
Viloyat	3 445,0	3 965,6	115,1
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	4 838,0	5 379,6	111,2
Qo‘qon	3 934,8	4 499,4	114,3
Quvasoy	3 417,1	4 022,2	117,7
Marg‘ilon	2 846,2	3 270,2	114,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	2 374,0	2 938,5	123,8
Qo‘shtepa	2 878,5	3 369,2	117,0
Bag‘dod	2 789,1	3 155,1	113,1
Buvayda	2 744,7	3 223,5	117,4
Beshariq	2 605,4	2 997,8	115,1
Quva	2 593,2	2 883,3	111,2
Uchko‘prik	2 732,7	3 575,0	130,8
Rishton	2 626,1	3 274,0	124,7
So‘x	2 826,0	3 211,3	113,6
Toshloq	3 645,2	4 277,0	117,3
O‘zbekiston	2 761,9	3 267,1	118,3
Farg‘ona	2 662,9	2 949,2	110,8
Dang‘ara	2 748,0	3 178,1	115,6
Furqat	2 890,4	3 147,1	108,9
Yozyovon	2 827,0	3 221,0	113,9

***(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*